

Mening yurtim

Osiyo Usmanova



Men O‘zbekistonda yashayman. Bugun mamlakatimiz ishonch bilan rivojlanib, olg‘a intilmoqda. Zamona-viy maktablar qurilmoqda, yangi korxonalar ochilmoqda, ilmiy markazlar hamda texnoparklar barpo etilmoqda. Bularning barchasi ta‘lim, fan va iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq O‘zbekistonning eng asosiy boyligi o‘z mehnati, bilimi va iste‘dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shayotgan yoshlardir.

Bizga mehribon hamda dono o‘qituvchilar saboq berib, yangi bilimlar olish, do‘stlashish, orzu qilish va o‘z maqsadlarimizga erishishimizga ko‘maklashadilar.

Salomatligimizni asrash va mustahkamlash yo‘lida jonkuyar shifokorlar doimo xizmatda bo‘ladilar. Ular har kuni bemorlarga yordam qo‘lini cho‘zib, murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajaredilar va insonlarning umrini saqlab qolishdek ezgu ishga o‘z hayotlarini bag‘ishlaydilar.

Sportchilarimiz xalqaro musobaqalar, jahon chempionatlari hamda Olimpiya o‘yinlarida medallarni qo‘lga kiritib kelmoqdalar.



O‘zbekistonni nafaqat kattalar, balki bolalar ham dunyoga tanitishmoqda. Mamlakatimiz dovrug‘ini ayniqsa iqtidorli yosh shaxmatchilarimiz taratib, eng kuchli raqiblarni mag‘lub etmoqdalar. Ular tinimsiz mehnat, bilim va matonat yuksak maralarga erishishga yordam berishini butun dunyoga yaqqol ko‘rsatib qo‘ymoqdalar. Shuningdek, yurtimizning yosh olimlari, muhandislari, dasturchilari va ixtirochilari ham O‘zbekiston nomini olamga taratishda faol ishtirok etmoqdalar. Ular zamonaviy texnologiyalar, kelajakka xizmat qiladigan buyuk loyihalar ustida muvaffaqiyatli mehnat qilmoqdalar.

Mamlakatimizda baxtiyor bolalar juda ko‘p. Ular ta‘lim olish bilan bir qatorda sport bilan shug‘ullanishadi, rasm chizishadi, qo‘shiq kuylashadi, tanlov hamda festivallarda ishtirok etishadi. O‘z kelajagini o‘ylagan har bir bola hozirdanoq orzulari sari dastlabki qadamlarini tashlamoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti ta‘lim, fan va sportni rivojlantirish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e‘tibor qaratmoqda. Bolalar uchun yangi maktablar, sport majmualari, kutubxonalar hamda ijod markazlari barpo etilmoqda.

O‘zbekiston tobora go‘zallashib, zamonaviylashib bormoqda. Zamon o‘zgarsa-da, insonlar orasidagi mehr-oqibat, kattalarga bo‘lgan hurmat hamda Vatanga bo‘lgan muhabbat saqlanib qolmoqda.



Mendan O‘zbekiston qayer deb so‘rashsa, shunday deb javob beraman:

– U – an‘analar asrab-avaylanadigan va kelajakka ishonch bilan boqiladigan yurt, imkoniyatlar, do‘stlik va yuksak umidlar diyori. Bu – mening Vatanim!



1. Nima uchun muallif yoshlarni O‘zbekistonning eng asosiy boyligi deb hisoblaydi?
2. Maktablar, korxonalar, ilmiy markazlar va texnoparklarning rivojlanishi mamlakat kelajagiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
3. O‘qituvchilar bolalar hayotida qanday o‘rin tutadi?
4. Shifokorlarning mehnati jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega?
5. O‘zbekistonlik sportchilar va shaxmatchilar o‘z Vatanlarini qanday yutuqlar bilan dunyoga tanitishmoqda?
6. Nima uchun olimlar, muhandislar, dasturchilar va ixtirochilarni kelajak bunyodkorlari deb atashadi?
7. O‘zbekistonda bolalar va yoshlar rivojlanishi uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?
8. Zamon o‘zgarsa-da, O‘zbekiston xalqining qaysi fazilatlarini o‘zgarmasdan qolmoqda?
9. Nima uchun muallif O‘zbekistonni “imkoniyatlar, do‘stlik va yuksak umidlar diyori” deb ataydi?



Matnni o‘qing va mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.

